# Tuman hokimi 58-umumiy o’rta ta’lim maktabida bo’ldi

✳ Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliqov bugun tumandagi 58 -umumiy o’rta ta’lim maktabida bo’lib, o’qituvchilar bilan suhbatlashdi. Shuningdek, ushbu ta’lim dargohida tashkil etilgan kulolchilik, chevarchilik, tikuvchilik va pazandachilik to’garaklari bilan tanishdi. To’garaklarni zamonaviy uskunlar bilan jihozlash va zarur ashyolar bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.
???? - Ta’lim muassasalarida o’quvchilarning puxta bilim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish, o’qituvchilarning o’quvchilarga sifatli bilim berishini nazorat qilish maktab rahbarlaridan talab qilinadi. O’quvchilar sovuq xonalarda o’qimasligi kerak,-deydi tuman hokimi.
???? Shuningdek, qish fasli munosabati bilan barcha zaruriy ishlar amalga oshirilishi bo’yicha tuman hokimi tomonidan ta’lim mutasaddilariga tushuncha va tavsiyalar berdi.

**Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati**

2025-02-04 14:52:28